TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI	1865
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	



MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY- STATISTIK TAHLILI

Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich

Termiz davlat universiteti, Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrası,
katta o'qituvchi
Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida mintqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda investitsiyalarning o'rni hamda ularni optimal tartibga solish masalalari tadqiq etilgan. Surxondaryo viloyati misolida yalpi hududiy mahsulot hajmi, tarmoqlar tarkibi va hududlar kesimidagi iqtisodiy nomutanosibliklar iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, viloyat iqtisodiyotining agrar yo'nalishga yuqori darajada ixtisoslashgani aniqlangan. Shuningdek, sanoat va xizmatlar sohalarini rivojlantirishda investitsiyalarni hududlar bo'yicha maqbul taqsimlashga doir ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintqa iqtisodiyoti, investitsiyalarni optimal tartibga solish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiy-statistik tahlil, hududiy nomutanosiblik, investitsiya salohiyati, agrar iqtisodiyot, sanoatni rivojlantirish, xizmatlar sohasi, infratuzilma rivoji, davlat-xususiy sherikchilik.

Abstract. This article examines the role of investment and its optimal regulation in ensuring sustainable regional economic development under globalization. Using the Surkhandarya region as a case study, the structure of the gross regional product, sectoral composition, and territorial disparities are analyzed through economic and statistical methods. The findings indicate a high level of agricultural specialization in the regional economy. In addition, scientifically grounded policy recommendations are proposed to optimize investment allocation in order to promote the development of industrial and service sectors.

Key words: regional economy, optimal investment regulation, foreign direct investment, gross regional product, economic and statistical analysis, territorial disparity, investment potential, agrarian economy, industrial development, service sector, infrastructure development, public-private partnership.

Аннотация. В статье исследуются роль инвестиций и вопросы их оптимального регулирования в условиях глобализации для обеспечения устойчивого развития региональной экономики. На примере Сурхандарьинской области проведён экономико-статистический анализ валового регионального продукта, отраслевой структуры и межтерриториальных диспропорций. Результаты исследования свидетельствуют о высокой степени аграрной специализации экономики региона. Обоснованы научно аргументированные направления оптимального распределения инвестиций, направленные на развитие промышленности и сферы услуг.

Ключевые слова: региональная экономика, оптимальное регулирование инвестиций, прямые иностранные инвестиции, валовой региональный продукт, экономико-статистический анализ, территориальная диспропорция, инвестиционный потенциал, аграрная экономика, развитие промышленности, сфера услуг, развитие инфраструктуры, государственно-частное партнёрство.



KIRISH

Jahonda globallashuv sharoitida mintaq iqtisodiyotini rivojlantirish, uning barqaror o'sishini ta'minlash, aholi turmush darajasi hamda ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda investitsiyalarni jalb etishni optimal tartibga solishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, ayniqsa xorijiy kapital oqimini kengaytirish orqali ushbu maqsadlarga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2022-yilda 4 foizga oshib, 916 mlrd AQSh dollariga yetgan hamda jahon investitsiya oqimining qariyb 70 foizini tashkil etgan. Shuningdek, yangi investitsion loyihalar soni 37 foizga, xalqaro moliyalashtirish bo'yicha bitimlar esa 5 foizga ko'paygan.

Mazkur sharoitda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'lamini kengaytirish, mintaqalarning investitsiya salohiyati va faolligini oshirish, mintaqalararo investitsiya loyihalarini rivojlantirish hamda yangi korxonalarni barpo etish orqali hududlarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda mintaq iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalarni optimal tartibga solish muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, jahonda mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartirish, mavjud ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirish, shuningdek, mintaqalarga jalb etilayotgan investitsiyalarni optimal tartibga solish va ularni hududlar hamda tarmoqlar kesimida oqilona taqsimlashga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mintaq rivojlanishiga investitsiyalarning ta'sirini baholash, investitsiyalarni optimal tartibga solish va taqsimlashning muhim omillarini aniqlash, investitsiya manbalarining mintaq iqtisodiyoti barqarorligiga ta'sirining hududiy jihatlarini ochib berish, hududlarning investitsiya salohiyati va faolligini iqtisodiy-statistik usullar asosida takomillashtirish hamda mintaqalarga jalb etilgan investitsiyalarni ekonometrik modellar yordamida baholash bo'yicha izlanishlar ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor vazifalari sifatida e'tirof etilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaq iqtisodiyoti rivojlanishida investitsion jarayonlarning roli iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, Alimov, Almuradov va Xomidov (2019) ekonometrik modellash usullarining investitsiyalarning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashdagi ahamiyatini asoslab, YaHM dinamikasini tahlil qilishda vaqt qatorlari modellarining samaradorligini ko'rsatib berganlar.

Xorijiy tadqiqotlarda investitsiyalar va mintaqaviy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda ARIMA kabi statistik modellar keng qo'llanilmoqda. Kasyoki (2015) vaqt qatorlari asosida prognozlash metodikasini ishlab chiqib, iqtisodiy jarayonlar dinamikasini baholashda mazkur yondashuvning amaliy ahamiyatini yoritgan.

Mahalliy tadqiqotlarda esa hududiy misolda investitsiya jarayonlarini tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Turaev (2021) Surxondaryo viloyati misolida qurilish sohasidagi investitsiyalar hajmini ARIMA modeli yordamida prognozlab, mintaq iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning muhim o'rnini asoslab bergan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar investitsiyalarning mintaq iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi, biroq ularning hududlar va tarmoqlar kesimidagi optimal taqsimoti hamda dinamik ta'sirini kompleks iqtisodiy-statistik usullar asosida chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot aynan shu yo'nalishdagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Surxondaryo viloyatining 2010–2022-yillar bo'yicha yalpi hududiy mahsuloti, soha va tarmoqlar tarkibi hamda hududlar kesimidagi ko'rsatkichlar asosida iqtisodiy-statistik tahlil o'tkazildi. Dinamik va tarkibiy tahlil yordamida o'sish sur'atlari hamda ulushlar baholandi, qiyosiy usul orqali tuman va shaharlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Shuningdek, aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, nisbiy va o'rtacha qiymatlar hisoblanib, mintaqaning investitsiya salohiyati va investitsiyalarni optimal taqsimlash yo'nalishlari belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi so'nggi yillarda ijobiy natijalar bilan tavsiflanmoqda. Hududning asosiy soha va tarmoqlarida barqaror o'sish jarayonlari kuzatilmoqda. Jumladan, yalpi hududiy mahsulot (YaHM)ning o'sish sur'ati 2010–2022-yillar davomida o'rtacha 6,7 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkich ma'lum darajada tebranuvchi tendensiyaga ega bo'lib, o'sish sur'ati 2010-yildagi 10,9 foizdan 2017-yilda 3,4 foizgacha pasaygan. Keyingi yillarda esa ushbu ko'rsatkich nisbatan barqarorlashib, ayrim davrlarda o'rtacha darajadan past qiymatlarda shakllangan. 2021-yil bundan mustasno bo'lib, o'sish sur'ati 7,9 foizni tashkil etib, o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori natija qayd etilgan.



Shu asosda viloyatning asosiy soha va tarmoqlari ham iqtisodiy-statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Xususan, qishloq xo'jaligi tarmog'ida 2010–2022-yillar davomida o'rtacha 4,8 foizlik o'sish sur'ati kuzatilgan. Tadqiqot davrida mazkur tarmoqda o'sish sur'atlari notekis bo'lib, 2018-yilda o'tgan yilga nisbatan 2,7 foizlik qisqarish qayd etilgan. Biroq so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi tarmog'ida barqarorlashuv tendensiyasi shakllanib, o'sish sur'atlari nisbatan izchil tus ola boshlagan.

Qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda, boshqa asosiy sohalarda ham iqtisodiyotning umumiy rivojlanish tendensiyalariga mos o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, sanoat tarmog'ining o'rtacha o'sish sur'ati 6,4 foiz, qurilish sohasiniki 17,6 foiz, xizmatlar sohasiniki esa 7,2 foizni tashkil etgan. Ayni paytda, ushbu ko'rsatkichlarning oxirgi yillardagi qiymatlari o'rtacha darajaga nisbatan biroz past bo'lishiga qaramay, sohalarda barqaror rivojlanish uchun yetarli salohiyat mavjudligi aniqlanmoqda.

Umuman olganda, mintaqa iqtisodiyoti va uning asosiy tarmoqlarida ijobiy o'sish sur'atlari shakllanayotganini ta'kidlash mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishni faqat o'sish ko'rsatkichlari asosida baholash yetarli emas. Shu sababli, keyingi tahlilda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi, undagi ustuvor soha va tarmoqlarni aniqlash hamda ularning mintaqa rivojlanishidagi rolini chuqurroq baholashga alohida e'tibor qaratiladi (1-jadval).

1-jadval. Surxondaryo viloyatida yaratilgan yalpi hududiy mahsulot va asosiy sohalarning o'sish sur'atlari, foizda (2010–2022-yillar)¹

Ko'rsatkich nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'rtacha
1. YaHM, jami	110,9	110,9	108,5	107,8	107,8	107,3	105,6	103,4	104,5	103,7	104,4	107,9	104,0	106,7
Shu jumladan:														
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	110,6	110,7	108,5	107,7	107,7	107,2	105,5	103,4	104,2	103,6	104,2	107,9	104,0	106,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	121,0	116,5	110,8	111,7	113,1	112,3	109,4	103,5	116,1	104,4	109,5	107,9	104,3	110,8
2. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	110,6	110,7	108,5	107,7	107,7	107,2	105,5	103,4	104,2	103,6	104,2	107,9	104,0	106,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	105,4	108,7	108,3	106,5	106,3	106,1	104,4	104,7	97,3	103,1	105,4	104,1	102,6	104,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	125,3	115,2	109,5	113,5	109,6	112,6	106,6	102,1	117,6	114,3	108,0	111,5	103,1	111,5
Sanoat	110,3	105,0	106,1	104,8	111,0	107,5	106,5	97,9	106,0	107,1	106,7	109,7	104,4	106,4
Qurilish	143,5	129,0	113,9	126,7	107,7	118,9	106,7	107,3	129,7	121,2	109,0	112,9	102,0	117,6
Xizmatlar	112,5	111,7	108,4	107,8	109,0	106,8	106,5	102,1	109,9	100,4	100,9	111,6	106,3	107,2
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	122,3	118,4	112,2	116,2	116,2	112,7	117,1	102,2	126,1	90,6	98,8	111,1	109,5	111,8
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	126,3	116,7	113,5	110,1	110,2	109,8	107,6	106,1	103,9	105,2	100,7	117,2	115,9	111,0
Boshqa xizmat tarmoqlari	106,8	109,0	106,3	105,2	106,7	104,3	103,2	101,1	105,1	103,8	101,7	110,7	103,4	105,2

1 Muallif tomonidan tuzilgan.



Fikrimizcha, ustuvor sohalaridan kelib chiqqan holda, mintaqaning kelgusidagi rivojlanishini ta'minlash bo'yicha asoslangan takliflarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Surxondaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot (YaHM) tarkibiy tuzilmasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, 2010–2022-yillar davomida tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati ulushi o'rtacha 97,4 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichni yillar kesimida baholash natijasida ham uning o'rtacha qiymatlarga yaqin darajada shakllangani aniqlandi. Mahsulotlarga sof soliqlar ulushi esa o'rtacha 2,6 foizga teng bo'lgan. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining yalpi tarmoqlardagi ulushi tadqiqot davrida o'rtacha 49,4 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, uning yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi 2010-yildagi 46,3 foizdan tebranuvchi tendensiya asosida 2022-yilda 47,7 foizga yetgan.

Sanoat va qurilish tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushlarining o'rtacha ko'rsatkichlari mos ravishda 6,6 foiz va 6,3 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, mazkur tarmoqlarning ulushi 2010–2022-yillar davomida ijobiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, sanoatda 2010-yildagi 6,7 foizdan 2022-yilda 6,9 foizga, qurilishda esa 5,0 foizdan 8,3 foizga oshgan. Xizmatlar sohasining ulushi esa 2010-yildagi 41,9 foizdan bosqichma-bosqich kamayib, 2022-yilda 37,0 foizni tashkil etgan hamda tadqiqot davri bo'yicha o'rtacha 37,2 foiz darajasida shakllangan (2-jadval).

Demak, o'tkazilgan tahlillar asosida mintaqqa iqtisodiyotining rivojlanishi asosan agrar yo'nalish bilan tavsiflanishini xulosa qilish mumkin. Jumladan, qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi ulushi xizmatlar sohasiga nisbatan 1,3 baravar, sanoatga nisbatan 7,6 baravar, qurilish tarmog'iga nisbatan esa 7,9 baravar yuqori ekanligi aniqlangan.

Bu holat mintaqada mavjud xomashyo resurslaridan samarali foydalanish asosida sanoatning qazib olish va qayta ishlash, oziq-ovqat hamda to'qimachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur tarmoqlarni rivojlantirishda investitsiya omilini soha va tarmoqlar kesimida maqsadli jalb etish hamda ularni optimal taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu yo'nalishlarga yo'naltiriladigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bilan bir qatorda, davlat budjeti mablag'laridan ham samarali foydalanishni kengaytirish zarur. Davlat budjeti mablag'lari, avvalo, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun muhim va maqsadli moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Surxondaryo viloyatida yaratilgan yalpi hududiy mahsulot tarkibida soha va tarmoqlarning ulushi, jamiga nisbatan foizda (2010–2022-yillar)²

Ko'rsatkich nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'rtacha
1. YaHM, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>Shu jumladan:</i>														
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	97,9	97,7	97,7	98,0	97,8	97,6	97,4	97,2	96,0	97,2	97,7	97,4	97,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	2,1	2,3	2,3	2,0	2,2	2,4	2,6	2,8	4,0	2,8	2,3	2,6	2,6
2. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	97,9	97,7	97,7	98,0	97,8	97,6	97,4	97,2	96,0	97,2	97,7	97,4	97,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	46,3	55,2	53,7	49,3	49,3	49,4	49,0	52,4	50,8	49,9	48,5	47,6	47,7	49,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11,7	9,7	10,2	11,7	12,4	12,3	12,9	11,9	13,6	14,5	15,6	16,0	15,2	12,9
Sanoat	6,7	5,5	6,1	6,7	6,9	6,7	7,1	6,1	6,6	6,5	7,0	7,3	6,9	6,6
Qurilish	5,0	4,2	4,1	4,9	5,5	5,6	5,8	5,8	6,9	8,0	8,6	8,7	8,3	6,3
Xizmatlar	41,9	35,1	36,1	39,1	38,4	38,3	38,0	35,7	35,7	35,6	35,9	36,4	37,1	37,2
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,4	5,4	5,7	6,5	6,8	6,8	8,5	8,5	9,7	8,3	8,2	8,3	8,8	7,5
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,1	6,0	6,6	7,4	7,0	7,6	5,7	5,6	4,6	4,4	4,2	4,4	4,6	5,8
Boshqa xizmat tarmoqlari	28,5	23,7	23,8	25,2	24,5	23,9	23,8	21,7	21,4	23,0	23,5	23,7	23,7	23,9

2 Muallif tomonidan tuzilgan.



Yuqorida keltirilgan natijalar asosida sanoat tarmog'ini kengaytirish hamda xizmatlar sohasi ko'lamini oshirish mintaqa iqtisodiy rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, iqtisodiyotda samaradorligi nisbatan yuqori bo'lgan soha va tarmoqlar ulushining ortishi barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlarni belgilashda tarmoqlarning viloyat tuman va shaharlaridagi holatini hamda ularning mintaqa iqtisodiyotidagi ulushini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar asosida mintaqaning tuman va shaharlar salohiyatidan foydalanish ko'lamini va samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Mintaqaning shahar va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining jamidagi ulushi notekis taqsimlangan. Xususan, hisob-kitoblarga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkichlar Jarqo'rg'on (18,1 foiz), Denov (12,4 foiz), Sho'rchi (10,3 foiz) tumanlari hamda Termiz shahri (16,3 foiz) hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan past ko'rsatkichlar esa Oltinsoy (2,0 foiz), Boysun (2,1 foiz) va Bandixon (0,9 foiz) tumanlarida qayd etilgan (2.1.3-jadval). Shu bilan birga, mintaqa hududlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning eng yuqori va eng past ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut qariyb 20 baravarni tashkil etmoqda. Bu holat hududiy farqlanishning yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Odatda, real sektor tarmoqlarining bunday farqlanishi investitsiyalarni jalb etish ko'lamiga, hududning jozibadorligi va salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan, nisbatan past ishlab chiqarish ulushiga ega tumanlarda to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Chunki aynan ushbu hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish salohiyati yuqori. Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va qayta ishlash infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarur. Hozirgi kunda ayrim turdagi mahsulotlarni qayta ishlash darajasi 50 foizdan past bo'lib, bu yo'nalishda samaradorlikni oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur jihatlarni hisobga olgan holda, mintaqaning tuman va shaharlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasini yanada to'liq baholash maqsadida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlarni ham tadqiq etish zarur. Bu yondashuv hududlararo farqlarni aniqlash hamda investitsiya siyosatini manzilli asosda takomillashtirishga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval. Surxondaryo viloyatida yaratilgan sanoat mahsulotlari tarkibida shahar va tumanlar ulushi, jamiga nisbatan foizda (2010–2022-yillar)³

Hudud nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'rtacha
Surxondaryo viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100,0
Oltinsoy	1,8	1,4	1,7	1,6	1,6	1,4	3,3	2,4	1,8	1,5	2,3	2,8	2,4	2,0
Angor	5,1	4,7	4,7	4,6	5,0	4,7	4,4	2,9	3,0	2,2	1,7	2,9	2,1	3,7
Bandixon											0,1	0,9	1,8	0,9
Boysun	2,5	2,2	2,4	2,5	2,5	2,5	2,2	2,2	1,8	1,6	1,6	1,5	1,6	2,1
Muzrabod	6,0	5,3	4,9	4,5	4,3	3,9	3,4	2,9	2,2	1,9	3,4	3,9	3,7	3,9
Denov	12,6	13,7	12,6	12,6	12,4	13,8	14,8	16,0	13,3	11,0	15,8	6,5	5,6	12,4
Jarqo'rg'on	17,5	18,5	18,7	19,2	18,0	18,7	17,4	19,6	20,6	20,5	17,5	14,7	14,2	18,1
Qumqo'rg'on	5,9	5,4	5,5	5,5	5,8	7,5	6,7	5,7	6,3	5,3	6,6	7,6	8,7	6,3
Qiziriq	5,4	4,9	4,9	4,9	4,7	4,5	3,5	3,1	3,6	1,8	2,9	3,5	2,9	3,9
Sariosiyo	5,7	5,3	5,4	5,7	6,6	6,7	6,1	6,3	7,7	12,5	5,0	10,8	10,7	7,3
Termiz	2,2	2,4	2,8	2,7	3,3	3,1	3,1	3,5	3,4	2,5	2,2	4,2	5,1	3,1
Uzun	3,6	3,7	3,7	3,7	4,1	4,0	3,8	3,5	3,7	2,2	1,8	4,3	4,4	3,6
Sherobod	8,6	7,8	7,1	7,0	7,0	6,0	4,4	4,7	4,8	8,1	7,9	8,5	8,0	6,9
Sho'rchi	10,9	10,4	11,7	11,1	11,3	9,9	10,3	9,2	10,9	8,5	8,7	9,3	11,2	10,3
Termiz sh.	12,2	14,3	13,9	14,3	13,5	13,2	16,5	18,2	16,9	20,3	22,4	18,5	17,7	16,3

3 Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.



Bunda viloyat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan hududlar kesimidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sherobod (201,3 foiz), Termiz (188,9 foiz), Jarqo'rg'on (140,8 foiz), Sho'rchi (139,7 foiz), Sariosiyo (113,7 foiz) tumanlari hamda Termiz shahri (183,1 foiz) hissasiga to'g'ri kelgan. Mintaqaning qolgan tumanlarida esa viloyat o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan pastroq daraja kuzatilgan. Xususan, eng past ko'rsatkichlar Oltinsoy (30,0 foiz), Boysun (29,5 foiz) va Bandixon (32,6 foiz) tumanlarida qayd etilgan.

Mintaqa hududlari o'rtasidagi disproporsiya darajasi 6,8 baravarni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich avvalgi hisob-kitoblarga nisbatan 2,5 baravar kamaygan bo'lsa-da, hududlararo farqlarni qisqartirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois, nisbatan past ko'rsatkichlarga ega hududlarga investitsiyalarni jalb etish ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ushbu tumanlarda davlat budjeti hisobidan ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish zarur.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, mintaqa iqtisodiyotida muhim o'rin tutuvchi qishloq xo'jaligi tarmog'i ham alohida tahlil qilindi. Hisob-kitoblar natijasida viloyatda yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida tuman va shaharlarning ulushi aniqlanib, hududlar kesimida baholandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ulush Denov (15,4 foiz), Qumqo'rg'on (10,1 foiz) va Sherobod (9,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi. Nisbatan past ko'rsatkichlar esa Bandixon (3,1 foiz) va Angor (5,9 foiz) tumanlarida qayd etilgan. Shu o'rinda Termiz shahrida mazkur ko'rsatkichning 0,1 foiz darajasida bo'lishi hududning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmaganligi bilan izohlanadi va bu holat qiyosiy tahlilda inobatga olinmadi. Shu bilan birga, viloyatning agrar yo'nalishda rivojlanishi tufayli tumanlar hissassi o'rtasidagi tafovut keskin emasligi kuzatiladi. Jumladan, eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq 3–5 baravarni tashkil etadi (4-jadval).

4-jadval. Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida aholi jon boshiga yaratilgan sanoat mahsulotlarining mintaqa bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan dinamikasi, foizda (2010–2022-yillar)*

Hudud nomi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'rtacha
Surxondaryo viloyati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Oltinsoy	26,9	21,7	25,2	24,5	24,1	20,8	48,8	36,4	27,3	22,4	35,0	41,6	35,8	30,0
Angor	102,8	93,2	93,9	91,8	98,4	93,7	87,3	57,5	59,3	43,0	34,0	58,6	41,9	73,5
Bandixon											4,7	31,6	61,5	32,6
Boysun	53,6	48,2	52,2	54,2	53,9	54,2	48,2	48,5	39,4	37,5	36,2	34,5	35,7	29,5
Muzrabod	112,2	100,1	91,1	83,9	80,7	72,6	63,6	53,0	41,1	34,5	63,8	72,9	68,7	92,9
Denov	83,2	91,0	84,4	84,2	83,0	92,4	98,5	106,5	91,2	75,5	107,8	44,4	38,4	76,4
Jarqo'rg'on	212,7	221,3	223,8	230,5	215,7	224,4	210,1	235,7	248,6	247,3	211,7	178,1	171,2	140,8
Qumqo'rg'on	68,8	61,7	62,1	62,1	65,5	85,4	76,4	64,1	67,6	60,3	73,9	86,0	98,3	86,4
Qiziriq	84,2	77,4	77,3	76,4	72,6	70,3	54,1	46,8	54,3	40,9	67,3	80,9	66,7	113,7
Sariosiyo	72,5	68,3	69,1	73,0	84,1	85,6	78,4	80,3	97,8	157,3	62,9	136,4	134,6	43,3
Termiz	52,2	58,1	67,5	65,5	79,7	74,6	76,1	84,3	82,0	85,6	73,3	143,3	173,8	188,9
Uzun	53,3	54,7	55,6	55,2	61,0	59,9	56,7	52,5	55,9	33,5	27,4	65,6	67,0	82,1
Sherobod	118,0	105,9	96,6	95,5	94,7	81,2	59,2	63,6	64,9	110,3	107,1	115,4	109,3	201,3
Sho'rchi	138,7	133,1	149,7	141,8	144,6	126,1	131,5	116,5	137,9	107,8	110,1	116,8	140,9	139,7
Termiz sh.	196,2	232,0	229,1	240,2	229,7	227,2	284,4	317,3	298,1	296,0	328,8	269,1	255,6	183,1

4 Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.



Bu holat sohaning investitsiya jozibadorligi yuqoriligidan dalolat beradi. Ayniqsa, mazkur mintaqada qishloq xo'jaligining investitsiya jozibadorligini yanada oshirish maqsadida agrar infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda davlat-xususiy sherikchilik asosida agrologistika tizimini tashkil etish, saqlash va logistika bilan bog'liq infratuzilma obyektlarini barpo etish zarur. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazish jarayonidagi uzulishlarni bartaraf etish, shuningdek, sanoat tarmoqlari uchun barqaror xomashyo bazasini shakllantirish imkonini beradi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida tuman va shaharlarning investitsiyalarni jalb etish salohiyati ortadi hamda ularni hududlar kesimida optimal taqsimlash imkoniyatlari kengayadi.

Yuqoridagilar, o'z navbatida, mintaqada xizmatlar sohasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, sohaning joriy holatini chuqur tahlil qilish zarur. Jumladan, viloyat bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 100 foiz deb olinib, tumanlar o'zaro qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, viloyat o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan eng yuqori daraja Termiz shahri (571,0 foiz) va Denov tumani (137,5 foiz) hissasiga to'g'ri keladi. Qolgan tumanlarda esa mazkur ko'rsatkich viloyat o'rtacha darajasidan past bo'lib, ayniqsa Oltinsoy (52,7 foiz) va Uzun (52,1 foiz) tumanlarida eng past qiymatlar qayd etilgan. Hududlar kesimida eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq 10,8 baravarni tashkil etadi.

Fikrimizcha, yuqori ulushning asosan viloyat markaziga to'g'ri kelishi hududda infratuzilma obyektlarining yuqori darajada konsentratsiyalashuvi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mintaqada xizmatlar sohasi mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish imkoniyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, turizm salohiyatining yuqoriligini inobatga olgan holda, xizmatlar hajmini oshirish uchun qo'shimcha sharoitlar mavjud. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi tuman va shaharlarning markazga yaqinligi hamda aholi zichligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu ko'rsatkich investitsiya jarayonlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi investitsiyalar hajmi va yo'nalishlariga bevosita ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lishiga qaramay, uning tarkibiy tuzilmasida agrar sohaning ustunligi saqlanib qolmoqda. Qishloq xo'jaligining yuqori ulushi sanoat va xizmatlar sohalarini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi hamda hududlar o'rtasida iqtisodiy muvozanatni mustahkamlash zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi bo'yicha tumanlar kesimida sezilarli tafovutlar aniqlangan.

Shu munosabat bilan, mintaq iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, xomashyo bazasiga tayangan holda qayta ishlash sanoati, oziq-ovqat va to'qimachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Investitsiyalarni hududlar va tarmoqlar kesimida optimal tartibga solish, davlat budjeti mablag'lari hisobidan infratuzilmani rivojlantirish hamda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini keng joriy etish mintaqaning investitsiya jozibadorligini yanada oshiradi. Natijada, hududlararo iqtisodiy tafovutlar qisqarib, Surxondaryo viloyatining uzoq muddatli barqaror va inklyuziv rivojlanishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimov R. X., Almurodov A. A., Xomidov S. O. Ekonometrik modelashtirish: o'quv qo'llanma. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. — 122 b.
2. Kasyoki A. Simple steps for fitting ARIMA model to time series data for forecasting using R // International Journal of Science and Research (IJSR). — 2015. — Vol. 4, No. 3.
3. Turaev B. E. ARIMA modeli yordamida qurilish ishlari hajmini prognoz qilish (Surxondaryo viloyati misolida) // "UzBridge" elektron jurnali. — 2021-yil, I-son, iyun. — 74–84-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>